

<http://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)



ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

7
—
2021

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАД҆ҚИҚОТЛАР
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 7, 2021
декабрь

<p>Муассис:</p> <p>Бухоро давлат университети Фан ва таълим МЧЖ</p> <p><u>Бош мухаррир:</u> Маъмуроў Баҳодир Бахшуллаевич</p> <p><u>Жамоатчилик кенгапси раиси:</u> Хамидов Обиджон Ҳафизович, Бухоро давлат университети ректори.</p> <p><u>Тахририят кенгапси раиси:</u> Махмудов Мэлс Ҳасанович</p> <p><u>Масъул котиб:</u> Акрамова Гулбахор Ренатовна</p> <p><u>Тахририят манзили:</u> Бухоро шаҳар, Қ.Муртазоев кӯчаси, 16-й</p> <p><u>Телефон:</u> +998(90)744-00-22</p> <p><u>E-mail:</u> eirjurnal2020@gmail.com</p> <p><u>Журналнинг электрон сайти:</u> www.interscience.uz</p> <p>Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил 30 сентбрдаги 306/6-сон Қарори билан ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ</p> <p>ФАНЛАРИ бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илемий даражасига талағорларнинг диссертация ишлари юзасидан асосий илемний натижаларини чоп этиши тавсия етилган илемний нашрлар рўйхатига киритилган</p> <p>Босишга руҳсат этилди: 25.12.2021 й. Қоғоз бичими 60x84 1/8. б/т.12,5. Буюртма рақами 12 «Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди. Бухоро шаҳар</p> <p>Журнал 28.07.2021 йилда 9305 раками билан Ўзбекистон Оммавий аҳборот воситалари давлат рўйхатидан ўтган.</p> <p>Журнал 2021 йил ноябрь ойидан бошлаб ҳар ойда 1 марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилади.</p> <p>«Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илемний-ме- тодик журналидан кўчириб босиши тахририятнинг розилиги билан амалга оширилади</p> <p>Мақолада келтирилган фактларнинг тўғрилиги учун муаллиф масъуллар</p>	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th colspan="2" style="text-align: center; background-color: #0070C0; color: white;">07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="width: 60%;">Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фаргона водийсининг полиэтник ҳолати</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">7</td></tr> <tr> <td>Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">15</td></tr> <tr> <td>Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">20</td></tr> <tr> <td>Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">31</td></tr> <tr> <td>Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">36</td></tr> <tr> <td>Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">41</td></tr> <tr> <td>Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">45</td></tr> <tr> <td>Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">50</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: center; background-color: #0070C0; color: white;">10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td>Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">57</td></tr> <tr> <td>Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">64</td></tr> <tr> <td>Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">72</td></tr> <tr> <td>Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">78</td></tr> <tr> <td>Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini o'qitishda optimal yondashuv sifatida</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">86</td></tr> <tr> <td>Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiy, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">95</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: center; background-color: #0070C0; color: white;">13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td>Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">100</td></tr> <tr> <td>Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">112</td></tr> </tbody> </table>	07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ		Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фаргона водийсининг полиэтник ҳолати	7	Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони	15	Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида	20	Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари	31	Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили	36	Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари	41	Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar	45	Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси	50	10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ		Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари	57	Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари	64	Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari	72	Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари	78	Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini o'qitishda optimal yondashuv sifatida	86	Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiy, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik	95	13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ		Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода	100	Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши	112
07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ																																							
Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фаргона водийсининг полиэтник ҳолати	7																																						
Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони	15																																						
Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида	20																																						
Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари	31																																						
Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили	36																																						
Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари	41																																						
Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar	45																																						
Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси	50																																						
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ																																							
Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари	57																																						
Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари	64																																						
Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari	72																																						
Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари	78																																						
Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini o'qitishda optimal yondashuv sifatida	86																																						
Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiy, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik	95																																						
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ																																							
Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода	100																																						
Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши	112																																						



Жуманиёзова М. Т. Малака ошириш жараёнида ижтимоий-гуманитар йўналиш ўқитувчиларининг касбий креативлигини шакллантириш методлари ва воситалари	118
Umaraliyeva M.A., Gulmonova D.B. Ta'limjarayonini takomillashtirishning modifikatsion imkoniyatlari	127
Турлибаева Г. М. Ихтисослашган умумтаълим мактаби ўқитувчининг иқтидорли ўқувчилар стратегияси	135
Халирова X. М. Неонологик ёндашув асосида бошлангич синф ўқувчилари онгида “тарбия” фанини шакллантириш механизmlарини такомиллаштириш ижтимоий зарурият сифатида	139
Qosimov F. M., Qosimova M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari mutanosibligini ta'minlash yo'llari	147
Почукаева Г. В., Маджуга А. Г. Эмпатическая культура личности как основа проектирования человекомерных систем: опыт концептуализации проблемы	156
Sayfullayeva D. A., Bozorova M. Sh. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish	164
Нуруллоев Л. Л. Енгил атлетика тўгаракларида шуғулланувчи болаларнинг умумий жисмоний тайёргарлиги кўрсраткичлари (умумтаълим мактаблари мисолида)	173
Абдуваҳобова Д. Э., Зияева М. Ф. Таълим жараёнида маънавий-маърифий ишлари-ни самарали ташкил этиш йўллари, шакл, метод ва воситалари	180
Рискулова К.Д. Чет тиллари ўқитувчилари компетентлигини шаклланишида халқаро хуқуқий-меъёрий мезонларни аҳамияти	186
Гаппарова М. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini korparativ yondashuv asosida tashkil etish va boshqarish (Maktabgacha ta'lim yo'nalishi misolida)	196
Hamroyev R. R. Tibbiyot institutlarida axborot texnologiyalar fanini o'qitishning jihatlari	201
Raupova Sh. A., Parpieva M. S. Features of medical and pedagogical control in the process of physical education	208
Sayfullayeva D. A., Baxronova Sh. I.a Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish	213
Юсупова С. Н. Фарғона водийсида миллий-маданий марказларнинг миллатлараро муносабатларни уйғунлаштиришдаги ўрни	225
Икромов Х. О. Талаба ёшларда фаол фуқаролик ва хаётий позициясини шакллантиришнинг фалсафий, хуқуқий ва ахлоқий жиҳатлари	234
Комолова Ф. К. Ўзбекистон олий таълим тизимидаги ўзгаришлар	240
Mo'minova D. K. Texnologik ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlarini o'qitishda "analogiyalar" texnologiyasidan foydalanish	244
Jo'rayev A. R., Xazratova Sh. X. Milliy hunarmandchilik makkablarida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish	249
Sayfullayeva D. A., Rayimova D. D. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o'qitishda kelajakka sayohat texnologiyasidan foydalanish	256
Djalolova D. F. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va pedagogik jarayondagi qoidalar	267



UMUMKASBIY FANLARNI O'QITISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.38.59.021>

Sayfullayeva Dilafruz Axmedovna.

Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lif kafedrasi dotsenti

Bozorova Munira Shavkatovna.

Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lif kafedrasi 2-bosqich
magistri

Аннотация: Bugungi kunda ta'lif jarayonida interaktiv metodlarni qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda va bu metodlar an'anaviy o'qitishga ko'ra samaradorligi yuqoriligi bilan o'zini oqlamoqda. Interaktiv metodlarning juda ko'p turlari ishlab chiqilgan bo'lib, barchasi qay darajada talabalarning ilm olishida fanlarni puxta o'zlashtirishlari uchun xizmat qiladi. Ayniqsa oliv ta'lif o'quv yuklamalardagi fanlarning asosiy qismini mustaqil ta'lifni tashkil etishi, nazorati ba baholashda inobatga olishi bo'yicha samarador tizim ishlab chiqilmagan. Mustaqil ta'lifni tashkil etish va baholash bo'yicha ishlab chiqilgan mavjud tizimlar bugungi kun talablariga javob beraolmaydi. Shu sababli maqolada oliv ta'linda umumkasbiy fanlaridan biri bo'lgan metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish fanidan mustaqil ta'lifni interaktim metodlardan foydalangan holda noan'anaviy tashkil qilish tizimi bo'yicha fikr yuritilgan. Shu metod oliv ta'lif talabalarida qo'llashning samaradorligini o'rGANISH bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, tadqiqot natijalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya / interfaol metod / ta'lif jarayoni / talaba / elektron darslik / metrologiya / standartlash / sertifikatlash.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТАМ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН

Сайфуллаева Дилафруз Ахмедовна,

Доцент кафедры технологического образования Бухарского
государственного университета

Бозорова Мунира Шавкатовна,

Магистр 2 курс, кафедры технологического образования
Бухарского государственного университета

Аннотация: Сегодня большое внимание уделяется использованию интерактивных методов в учебном процессе, и эти методы оправдываются тем, что они более эффективны, чем традиционное обучение. Есть много типов интерактивных методов, которые можно использовать, чтобы помочь студентам овладеть предметом. Особенно



в сегодняшнем высшем образовании, где основная часть предметов в рабочей нагрузке является независимым обучением, отсутствует эффективная система, позволяющая учителям учитывать организацию независимого обучения, контроля и оценки. Существующие системы организации и оценки независимого обучения не соответствуют сегодняшним требованиям. Поэтому в статье рассматривается система нетрадиционной организации самостоятельного обучения по предметам метрологии, стандартизации и сертификации, одной из специальных дисциплин высшего образования, с использованием интерактивных методов. Были проведены исследования по изучению эффективности этого метода у студентов высших учебных заведений и проанализированы результаты исследования.

Ключевые слова: инновационные технологии / интерактивный метод / учебный процесс / студент / электронный учебник / метрология / стандартизация / сертификация.

USE OF SOFTWARE TOOLS IN TEACHING GENERAL PROFESSIONAL DISCIPLINES

Sayfullaeva Dilafruz Akhmedovna,

*Associate Professor at the Department of technological Education,
Bukhara State University*

Bozorova Munira Shavkatovna,

*2nd course Master of Department of Technological Education of
Bukhara State University*

Abstract:: Today, much attention is paid to the use of interactive methods in the educational process, and these methods are justified by the fact that they are more effective than traditional teaching. There are many types of interactive techniques that can be used to help students master a subject. Especially in higher education today, where the bulk of the subjects in the workload is independent teaching, there is no effective system for teachers to take into account the organization of independent teaching, supervision and assessment. The existing systems for organizing and assessing independent learning do not meet today's requirements. Therefore, the article discusses a system of non-traditional organization of self-study in the subjects of metrology, standardization and certification, one of the special disciplines of higher education, using interactive methods. Studies were conducted to study the effectiveness of this method among students of higher educational institutions and the results of the study were analyzed.

Keywords: innovative technology / interactive method / educational process / student / electronic textbook / metrology / standardization / certification.

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali, yuksak

ma'naviyatli, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog'liq. 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va shunga asosan to'ldirilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan [1].

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich hal etish yo'llar va vositalari Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda belgilab berilgan. Ta'limning samaradorligini oshirishda yuksak imkoniyatlarga ega bo'lgan vositalardan biri sifatida ta'limning faol usullari qaralayapti. Ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarning tushunchasining kirib kelishi va shu texnologiyalar yordamida innovatsion ta'limni tashkil etish hozirgi zamon talabidir [2].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anvaiy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, musatqil o'rjanib, tahvil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlesh, tahvil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Pedagogik va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi ta'lim vositalarining yangi avlodi va ta'limning so'nggi turlari ko'rinishida o'z mohiyatiga ega bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida foydalani layotgan an'anvayi o'qitish usullariga qo'shimcha o'quv vositalari deb hisoblangan barcha multimedia o'quv uslubiy elektron mahsulotlar shular jumlasidandir. O'quv-uslubiy elektron mahsulotlarning imkoniyatlari va kiritilgan ma'lumotlar asosida turlarga ajratish mumkin:

1. O'quv darslikning elektron versiyasi

Namunaviy dasturga muvofiq fanning to'liq kursini qamrab olgan ma'lumotlarning elektron variant holdagi mahsulot (ma'ruzalar, matnlar va boshqalar).

2. Elektron darslik

O'quv darslik elektron versiyasining takomillashtirilgan holatidir. Elektron darslik matni, gipermatn, giperizoh, grafik, diagramma, rasm, chizma va ularning animatsiyalaridan iborat (elektron darslik va elektron darslik

versiyasi professor o‘qituvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazishda va talabani darsdan tashqari mustaqil ta’lim olish uchun imkoniyat beradi).

3. O‘quv uslubiy elektron qo‘llanma

O‘quv fanini qisman qamragan bo‘lib, matn, rasm, gipermatn, chizma va animatsiyalardan iborat.

4. O‘quv uslubiy elektron ko‘rgazma

Ma’lum bir fan uchun kompyuterlashtirilgan, yaxshi dizaynga ega bo‘lgan miniplakatlar to‘plami. 2D grafik o‘lchamida tayyorlanadi (dars jarayonida multimedia proyektor orqali namoyish etiladi).

5. O‘quv uslubiy kompyuter dasturi

Ma’lum fanning mavzusikeng yoritiladi. Ushbu dastur algoritmlashtirilgan bloklardan iborat. Har bir blok o‘zining mazmuniga, matni, grafikasi, animatsiya, o‘quv va nazorat qismidan iborat bo‘lgan dastur.

6. Multimediali o‘quv-uslubiy kompyuter dasturi va ensiklopediyalar

Ushbu o‘quv kompyuter dasturi matn, gipermatnlar, giperizohlar, grafik, diagrammalar, rasmlar, chizmalar, harakat, ovoz, videotasmalar, fotorasmlarni o‘z ichiga qamrab olgan mahsulot bo‘lib. 3D grafik o‘lchamida tayyorlanadi.

7. Kompyuterlashtirilgan videofilmlar

Ushbu mahsulotda sensorika ishlataladi. Kompyuterlashtirilgan videofilmlar skanerdan, raqamli videokamera va fotoapparatlardan matnlar, rasmlar, harakatlar kiritiladi. Undan tashqari, videomagnitofondan raqamli o‘zgartirgich orqali videofilmlar joylashtiriladi va tahrirlar kiritish imkonini beradi.

8. Kompyuterlashtirilgan laboratoriya ishlari

Berilgan mavzu bo‘yicha laboratoriya tajribalarini namoyish qilish, harakatlanishi, asboblarining ko‘rsatkichlari, vaqt o‘lhash-larini va boshqa jarayonlarni bog‘lovchi kompyuter dasturi. 3D grafik o‘lchamida tayyorlanadi (Laboratoriya asbob-uskunalarini yetishmaydigan joylarda ishlatalish imkoniyatini beradi).

9. Ma’lumotlar banki

Katta hajmdagi axborotni o‘z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko‘rinishda (jadval, diagramma, histogramma, matn, rasm va hokazo) bera oladigan, o‘quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o‘z ustida mustaqil ishlashi va o‘z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo‘llaniladigan, doimiy ravishda to‘ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo‘ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi. O‘quv uslubiy elektron mahsulotlar muassasalarining kutubxonalarida, kompyuter sinflarida saqlash va foydalanish mumkin.

Elektron adabiyotni ishlab chiqish quyidagi keltirilgan bosqichlar olib borilishi maqsadga muvofiq:

- ta’lim muassasalarida fanlar bo‘yicha Respublikada yaratilgan elektron mahsulotlarning monitoringi o‘tkaziladi;
- yetakchi professor-o‘qituvchi, dasturchi (programmist), dizaynerlar jalgab etiladi.
- professor-o‘qituvchilar fan bo‘yicha adabiyot, grafik, chizma, rasm, test, mashg‘ulot, so‘rov, qiziqarli mashg‘ulot va hokazolar yig‘iladi va ularga

asosano ‘quv-uslubiy elektron mahsulotga ssenariy tuziladi.

- O‘quv uslubiy elektron mahsulotni tuzilmasi ishlab chiqiladi.
- Bo‘limlar, boblar va mavzular bo‘yicha mazmunini hamda ketma-ketligi ishlab chiqiladi.
- Dizayner tomonidan elektron mahsulotga estetik shakl yaratiladi.
- Dasturchi o‘quv-uslubiy elektron mahsulotlarning alohida bloklarning algoritmini tayyorlaydi va berilgan ssenariy, shakllar bo‘yicha tayyor elektron mahsulot yaratadi.
- CD-diskka joylashtiriladi va foydalanuvchi uchun uslubiy qo‘llanma tayyorlanadi.

Elektron o‘quv mahsulotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘sishma ma’lumotlar bilan ta’minalashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi. O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarga asosiy, jumladan: ilmiylik; pedagogik; didaktik; metodik; psixologik; ergonomik; estetik; texnik va texnologik talablar qo‘yiladi.

O‘quv uslubiy elektron maxsulotlarning sifatini baholash mezonlari

1. Texnik mezonlar:

- avtomatik holda yuklanishi (avtozagruzka);
- boshqarish, ma’lumot kirdgizish, ma’lumot olish va chiqish;
- EHMning namunaviy ishlash (parametrarni kirdgizilgan holda) imkoniyati;
- EHMning kerakli kadrlarini qayta yuklash imkoniyati;
- kiritilgan ma’lumotlarni qaytarish imkoniyati;
- ekranda berilgan va qayta ishlangan ma’lumotlarni chop etish imkoniyati.

2. Servis mezonlar:

- iyerarxik menu mavjudligi (ma’lumotni qulay topish);
- interaktiv dialogning mavjudligi;
- yordam va sharkllarning mavjudligi;
- tasvirning aniqligi;
- dizayn;
- grafik va harflarning shriftlari bir-biri bilan uyg‘unlashganligi.

3. Pedagogik va psixologik mezonlar:

- ilmiy va pedagogik bilimlarning EHM aks ettirilganligi;
- dasturiy vositalardan foydalanishda pedagogik maqsadlarni tanlash asoslanganligi;
- zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanuvchi yangi boshqaruva sharkl va o‘qitish usullari mavjudligi;
- ta’limga muhimligi (didaktik talablarga javob berishi);
- o‘quv materialini ifodalanish shakli va uning mazmuni orasidagi optimal bog‘liqligi (grafik, jadval, matn, chizma, sxema va hokazo);
- EHM ishlatilganda bexos tugmalarni bosishda, ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va stabil ishlashi;
- fikrlashni shakllantirish;
- bilim, ko‘nikma, mahoratlarni mustaqil egallashni shakllantirish;

- eksperimental va izlanish faoliyatini o‘quv jarayonida egallash.

4. Interaktivlik mezoni:

- dialogni olib borishda har xil vositalarning mavjudligi;
- o‘quv materialini o‘zlashtirishda osondan qiyinda o‘tish bosqichlari;
- o‘quv materialida istalgan bobidan foydalanish imkoniyati;
- javoblarni kiritish va olish variantlari;
- xatolarni tahlil qilish imkoniyati va to‘g‘rilash.

O‘quv jarayoni uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalarning psixologik-pedagogik, dasturiy texnik sifatini va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish baholash mezonzlari orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarni ekspertizasi belgilangan tartibda maxsus ekspertlar tomonidan o‘tkazilishi kerak. Maxsus ekspert guruhi tarkibiga ta’lim muassasalaridan yuqori malakali pedagoglar, dastur tuzuvchilar, psixolog, dizayner va yetakchi mutaxassislar kiritilishi lozim [3.4.].

Buxoro davlat universitetining bir guruh olimlari tomonidan umumkasbiy fanlarni o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish yo‘nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Unda o‘ndan ortiq umumkasbiy fanlardan elektron darslik ko‘rinishidagi interaktiv dastur yaratish va unda nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini turli qiziqarli o‘yin va pog‘onali topshiriqlar metodlari orqali tashkil etish asosiy maqsad etib belgilangan. Masalan: Buxoro davlat universitetining pedagogika fakulteti “Texnologik ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d., (PhD) D.Sayfullayeva va 5A112101-Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim) mutaxassisligi ikkinchi bosqich magistri M.Bozorovalar tomonidan umumkasbiy fanlardan hisoblangan “Metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish” fanidan interaktiv elektron darslik tayyorlanib, uni ta’lim jarayonida qo’llash bo‘yicha amaliy tadqiqotlarni olib bormoqdalar [9.10.11].

“Metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish” fanidan interaktiv elektron darslikning asosiy oynasi 1-rasmida keltirilgan.

1-rasm. “Metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish” fanidan interaktiv elektron darslikning asosiy oynasi

Ushbu elektron darslik Windows 2010 muhiti, Java dasturlash tilida

yaratilgan bo'lib, har qanday shaxsiy kompyuter, noutbok va android platformali zamonaviy qo'l telefonlari orqali foydalanish imkoniyati mavjud. Elektron darslik pogonali o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, umumiy 60 soatli mustaqil ishslashning mantiqiy o'rnini bosaoladi. Ya'ni, bir mavzuni o'zlashtirish bosqichi egallammasa, keying mavzuga o'tish cheklangan bo'lib, har bir bosqichdagi o'zlashtirilgan bali yig'ilib boradi va elektron kursning o'rtacha bali chiqariladi. Dastur har bir o'rnatilganda foydalanuvchini qayd etish talab etiladi va kurs oxirida qayd etilgan nomdag'i foydalanuvchining o'zlashtirish ballini QR kodli sertifikat sifatida taqdim etadi. Bu esa "Metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish" fani bo'yicha fan o'qituvchisiga talabaning mustaqil ta'limni elektron darslik orqali tashkil etish imkoniyatini yaratishi bilan bir qatorda, fanni chuqurroq o'zlashtirilishiga erishadi [11].

Mazkur dasturni ta'lim jarayonida qo'llab, fanni o'zlashtirish samaradorligini o'rganishni aniqlash bo'yicha tadqiqot tajribalari Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 1-Tex-19 guruhini ikkita kichik guruxlarga bo'lgan holda (bir guruh ichida) va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandishlar instituti Buxoro filiali Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich TJIChAvaB 1/1 va TJIChAvaB 1/2 guruqlarida (alohida guruhlarda) o'tkazildi hamda tajriba natijalari 1 va 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zlashtirish bahosi	An'anviy mustaqil ta'lim bajartirishda	Elektron darslik orqali interaktiv mustaqil ta'lim bajartirishda	O'zlashtirilish samaradorligi
	1-Tex-19 guruhi 1-kichik guruh	1-Tex-19 guruhi 2-kichik guruh	
5	2 ta/17 %	4 ta/33 %	+16 %
4	5 ta/42 %	6 ta/50 %	+8 %
3	4 ta/33 %	2 ta/17 %	-16 %
O'zlashtira olmagan	1 ta/8 %	-/0%	-8%
JAMI talaba soni	12 nafar	12 nafar	
	92 %	100%	+8 %

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 1-Tex-19 guruhi talabalarini "Metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish" fanidan an'anviy va interaktiv mustaqil ta'lim bajarishining umumiy o'zlashtirilish samaradorligiga ta'siri

O'zlashtirish bahosi	An'anviy mustaqil ta'lim bajartirishda	Elektron darslik orqali interaktiv mustaqil ta'lim bajartirishda	O'zlashtirilish samaradorligi
	TJIChAvaB 1/1 guruhi	TJIChAvaB 1/2 guruhi	
5	4 ta/14 %	7 ta/25 %	+11 %
4	12 ta/43 %	13 ta/46 %	+3 %
3	10 ta/36 %	8 ta/29 %	-7 %
O'zlashtira olmagan	2 ta/7 %	-/0%	-7%
JAMI talaba soni	28 nafar	28 nafar	
	93 %	100%	+7 %

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda ko'rinish turibdiki, elektron darslikdan foydalaniib, interaktiv mustaqil ish bajarish orqali talabalarning fanni o'zlashtirish darajasi va sifatini oshishi kuzatildi. Bu esa o'z navbatida talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etilishiga va mustaqil ishning bajarishdagi barcha ma'lumotlarning jamlanganligi hamda mustaqil ishni bosqichma-bosqich bajarish orqali ballni yig'ib borish imkoniyatining mavjudligi va oxirida mustaqil ta'limning o'zlashtirilish darajasiga ega bo'lishi ham ularni qiziqtirishi bilan birga fanni chuqur egallashiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://lex.uz/docs/-5013007>

<https://lex.uz/docs/-48401>

Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003

Ziyomuxamedov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000

А.Р.Жўраев, Д.А. Сайфуллаева, Ш.Бахронова Замонавий таълим технологиялар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни // Science and Education. № 2020.Б.169-176

Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva. "Methodology of using innovative technologies in technical institutions". PSYCHOLOGY AND EDUCATION. Scopus International Journal.(2021) 58(1)

Sayfullayeva D.A Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6- 2017 Part I.- P.154-157

Sayfullayeva D.A., Juraev A.R., Toshev Yu.N. Innovative project of preparation of students for professional activity // Научно-методический журнал вестник науки и образования № 19 (97). Часть 2. 2020.C.48



Bozorova M.Sh. Технологик ва профессионал таълимда “Устоз-Шогирд” тизимининг аҳамияти. “Технологик ва профессионал таълимни модернизациялаш, муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-техник анжумани. БухДУ. Бухоро. 20 ноябр 2020.

Bozorova M.Sh. Мактабларда ахборот-комуникацион технологиялар (АКТ) ни қўллашнинг фанларни ўзлаштирилишидаги ўрни. “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 2-sonli Respublika ilmiy-amaliy on-line конференсијаси материаллар то’plами. Farg’она. 1 Ноябр. 2020. 132-134 betlar.

Sayfullayeva D.A., Bozorova M.Sh., Olimov H.H. “MSSFED-Metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish fanidan elektron darslik” EHM uchun darturga guvohnoma. Uz. Res. Intellektual mulk agentligi Guvohnoma DGU 11824. 10.07.2021 й